

TO‘QIMACHILIK SANOATI KLASTERLARINI BOSHQARISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Boltabayeva Nadirahon Alijanovna

*Farg‘ona Davlat Universiteti, “Iqtisodiyot” (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha) fakulteti
magistranti*

bnodirahon@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada to‘qimachilik sanoati klasterlarini boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish masalalari ko‘rib chiqilgan. Mavjud holat tahlili asosida klasterlarni boshqarishda uchraydigan muammolar, jumladan, ishtirokchilar o‘rtasidagi hamkorlikning zaifligi, innovatsiyalarni joriy etishda moliyaviy qiyinchiliklar va infratuzilma yetishmovchiligi aniqlangan.

Kalit so‘zlar: to‘qimachilik sanoati, klasterlar, tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlar, qo‘shilgan qiymat zanjiri, innovatsiyalar, eksport salohiyati, iqtisodiy samaradorlik, xalqaro tajriba, moliyalashtirish, infratuzilma, davlat-xususiy sheriklik, raqamlashtirish.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКИХ МЕХАНИЗМОВ УПРАВЛЕНИЯ КЛАСТЕРАМИ ТЕКСТИЛЬНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ

Болтабаева Надирахон Алиджановна

*Магистрант Ферганского государственного университета, факультет
«Экономика» (по сетям и отраслям)*

bnodirahon@gmail.com

Аннотация: В данной статье рассмотрены вопросы совершенствования организационно-экономических механизмов управления кластерами текстильной промышленности. На основе анализа текущей ситуации были выявлены проблемы, с которыми сталкивается управление кластерами, включая слабость сотрудничества между участниками, финансовые трудности с внедрением инноваций и отсутствие инфраструктуры.

Ключевые слова: текстильная промышленность, кластеры, организационно-экономические механизмы, цепочка создания добавленной стоимости, инновации, экспортный потенциал, экономическая

эффективность, международный опыт, финансирование, инфраструктура, государственно-частное партнерство, цифровизация.

IMPROVEMENT OF ORGANIZATIONAL AND ECONOMIC MECHANISMS OF TEXTILE INDUSTRY CLUSTER MANAGEMENT

Boltabayeva Nadirakhan Alijanovna

Master's student of Fergana State University, "Economics" faculty (by networks and sectors)

bnodirahon@gmail.com

Abstract: This article examines the issues of improving organizational and economic mechanisms of textile industry cluster management. Based on the analysis of the current situation, the problems encountered in the management of clusters, including the weakness of cooperation between participants, financial difficulties in the introduction of innovations, and lack of infrastructure have been identified.

Keywords: *textile industry, clusters, organizational-economic mechanisms, added value chain, innovations, export potential, economic efficiency, international experience, financing, infrastructure, public-private partnership, digitization.*

KIRISH

Maqolada to'qimachilik sanoati klasterlarini boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish masalalari ko'rib chiqilgan bo'lib, mavjud holat tahlili asosida klasterlarni boshqarishda uchraydigan muammolar, jumladan, ishtirokchilar o'rtasidagi hamkorlikning zaifligi, innovatsiyalarni joriy etishda moliyaviy qiyinchiliklar va infratuzilma yetishmovchiligi aniqlangan. Muallif tashkiliy, iqtisodiy va innovatsion mexanizmlarni takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqib, xorijiy tajriba asosida amalda qo'llanilishi mumkin bo'lgan yechimlarni taklif qiladi. Tadqiqot natijalari klaster tizimining samaradorligini oshirish va eksport salohiyatini kengaytirishga qaratilgan. To'qimachilik sanoati O'zbekiston iqtisodiyotining muhim tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Mamlakatda bu sohani rivojlantirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish hamda tashqi bozorlarda raqobatbardosh mahsulotlar yaratish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Shu munosabat bilan to'qimachilik sanoatida klaster tizimini rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada to'qimachilik sanoati klasterlarini boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish masalalari tahlil etiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

To'qimachilik sanoati klasterlari faoliyatini boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish masalalari xorijlik olimlar F.Teylor, P.Druker, M.Porter, I.Gordon, M.Ueyts, D.Vol'f, M.Enright [1] va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarida o'z aksini topgan.

Ushbu sohada MDH olimlaridan G.B.Kleyner, A.A.Itigina, E.I.Krilov, A.N.Dirdonova, V.V.Gluxov, L.F.Xomutova, M.I.Xaydarzoda, P.A.Muxsinova [2] va boshqalar ilmiy izlanishlar olib borganlar.

To'qimachilik sanoati klasterlarini rivojlantirish, tarmoqda bozor munosabatlarini chuqurlashtirish, klaster tarkibidagi korxonalarda boshqaruv jarayonlarini takomillashtirishning ayrim nazariy va amaliy jihatlari respublikamiz iqtisodchi olimlari S.S.G'ulomov, N.X.Jumaev, M.Sharifxo'jaev, Yo.Abdullaev, N.Q.Yo'ldoshev, M.R.Boltabaev [3], N.M.Maxmudov, Z.A.Xakimov, S.Sh.Yusupov, I.A.Toshpulatov [4] va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarida o'z aksini topgan.

TADDIQOT METODOLOGIYASI

To'qimachilik sanoati klasterlarini boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha tadqiqot quyidagi ilmiy yondashuvlar va usullarga asoslandi: tahliliy usul, solishtirma tahlil, statistik tahlil, ekspert baholash, modellashtirish usullaridan foydalanib zamonaviy metodologiyasi o'rganildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

O'zbekistonda milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlaridan biri bo'lgan sanoat, xususan, to'qimachilik sanoatida ham iqtisodiy o'sish nazariyalarida asoslangan raqobat ustunliklari negizidagi rivojlanish kuzatiladi. Mamlakatimizda to'qimachilik sanoatining shakllanishi va rivojlanishi ijtimoiy-iqtisodiy, tabiiy-iqlim, geografik va tarixiy asoslarga ega bo'lib, mamlakatda foydalaniladigan qishloq xo'jaligi yerlarining sug'orma dehqonchilikka asoslanganligi hamda paxtachilik uchun qulay iqlim sharoitiga egaligi to'qimachilik tarmog'ining shakllanishi uchun mos bo'lgan tabiiy sharoit mavjudligini ko'rsatadi. Bu esa mamlakatda katta moddiy-texnik bazaga ega bo'lgan korxonalar tashkil etishga yo'l ochadi [5].

Mamlakatda bu sohani rivojlantirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish hamda tashqi bozorlarda raqobatbardosh mahsulotlar yaratish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Shu munosabat bilan to'qimachilik sanoatida klaster tizimini rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada to'qimachilik sanoati klasterlarini boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish masalalari tahlil etiladi. Hozirgi kunda O'zbekistonda to'qimachilik klasterlari quyidagi vazifalarni bajarmoqda:

1. Xom ashyo yetishtirish va uni qayta ishlash;

2. Tayyor mahsulot ishlab chiqarish;
3. Eksport yo'nalishida marketing faoliyatini olib borish.

Ammo mavjud klasterlarda boshqaruvning samaradorligiga ta'sir ko'rsatuvchi qator muammolar mavjud bo'lib ular quyidagilarni tashkil etadi:

1. Klaster ishtirokchilari o'rtasida o'zaro hamkorlik mexanizmlarining yetarli darajada yo'lga qo'yilmaganligi.
2. Innovatsion texnologiyalarni joriy qilish va moddiy-texnik bazani rivojlantirishda moliyaviy resurslarning yetishmasligi.
3. Bozor talablariga mos mahsulot ishlab chiqarishni tashkil etishda marketing tadqiqotlarining kamligi [6].

Klasterlarni boshqarish samaradorligini oshirish uchun quyidagi tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish zarur deb hisoblaymiz:

1. Hamkorlik tizimini mustahkamlash, ya'ni klaster ishtirokchilari o'rtasida aniq majburiyatlar va huquqlarni belgilaydigan shartnomaviy munosabatlarni takomillashtirish lozim. Bunda joylarda maxsus kooperatsiya markazlarini tashkil qilish taklif etiladi.

2. Innovatsiyalarni joriy etish. Zamonaviy texnologiyalarni tatbiq etish uchun davlat-xususiy sheriklik asosida innovatsion markazlarni tashkil etish zarur. Bu klasterlarda mahsulot sifati va ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi.

3. Moliyaviy qo'llab-quvvatlash, klasterlarni rivojlantirish uchun imtiyozli kreditlar ajratish. Xalqaro investorlarni jalb qilish orqali moliyalashtirish ko'lamini kengaytirish.

4. Marketing strategiyasini takomillashtirish. Bu orqali tashqi bozorlar uchun mo'ljallangan mahsulotlarni ishlab chiqish bo'yicha marketing tadqiqotlarini kuchaytirish.

To'qimachilik sanoati nafaqat O'zbekistonning, balki jahon iqtisodiyotining muhim tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Xususan, so'nggi yillarda O'zbekiston to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish va eksport qilish hajmini oshirishga intilmoqda. Bu esa klaster tizimini joriy qilish orqali ishlab chiqarish jarayonlarini integratsiyalashtirish va ratsionallashtirishni talab etadi. Mazkur ilmiy yondashuv to'qimachilik klasterlarining ahamiyatini yoritib, ularni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha takliflar beradi.

To'qimachilik sanoatida klasterlashuv quyidagi ustuvorliklarni ta'minlaydi:

1. Qo'shilgan qiymat zanjirini shakllantirish: Xom ashyodan tayyor mahsulotgacha bo'lgan barcha jarayonlarning birlashtirilishi raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish imkonini beradi.

2. Resurslardan samarali foydalanish: Klaster ishtirokchilari o'rtasidagi hamkorlik mahsulot ishlab chiqarishni optimallashtiradi.

3. Innovatsiyalarni joriy qilish: Texnologik jihatdan rivojlanishga imkoniyat yaratiladi [7].

2024 yil holatiga ko'ra, O'zbekistonda 40 dan ortiq to'qimachilik klasterlari mavjud bo'lib, ularning faoliyati quyidagi yo'nalishlarga qaratilgan:

1. Xom ashyo etishtirish (paxta xom ashyosini yetishtirish);
2. Uni qayta ishlash va tayyor mahsulot ishlab chiqarish;
3. Mahsulotni ichki va tashqi bozorlarga etkazib berish [8].

Shu bilan birga, klasterlar faoliyatida qator muammolar mavjud bular, klasterlarning huquqiy va tashkiliy asoslari yetarli darajada ishlab chiqilmagan, klaster ishtirokchilari o'rtasida axborot almashinuvi va hamkorlik past darajada, ishlab chiqarish jarayoniga innovatsion texnologiyalarni joriy qilish qiyinchilik tug'dirmoqda.

Klasterlarni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish yo'nalishlari bo'lib quyidagilarni taklif etamiz:

1. Tashkiliy mexanizmlarni takomillashtirish. Klasterlarning tashkiliy asoslarini qayta ko'rib chiqish va ularni aniq huquqiy maqomga ega tuzilma sifatida belgilash. Klaster ishtirokchilari o'rtasida aniq vazifalarni taqsimlash, javobgarlik va huquqlar doirasida shartnomalar tuzish. Markazlashgan boshqaruvni joriy etish orqali resurslarni samarali taqsimlash.

2. Innovatsiyalarni joriy etish. Zamonaviy uskunalar va texnologiyalarni xarid qilish uchun davlat subsidiyalarini kengaytirish. Ilmiy-tadqiqot institutlari bilan hamkorlikni kuchaytirish. Klasterlarda avtomatizatsiya va raqamlashtirish jarayonlarini jadallashtirish.

3. Iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish. Davlat tomonidan imtiyozli kreditlar, soliq va bojxona yengilliklarini taqdim etish. Xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikni kuchaytirish. Eksport yo'nalishini rivojlantirish uchun klasterlarga grantlar ajratish.

4. Marketing va eksport strategiyasini takomillashtirish. Klasterlarning tashqi bozorlardagi marketing faoliyatini qo'llab-quvvatlash uchun maxsus agentliklar tashkil etish. "Made in Uzbekistan" brendini ommalashtirish.

5. Iqtisodiy diplomatiyani kuchaytirish orqali yangi eksport bozorlarini o'zlashtirish [9].

6. Xorijiy tajribadan foydalanish ya'ni Turkiya va Xitoy misolida klasterlashuv jarayonini qo'llash. Jumladan, Turkiya to'qimachilik sanoatida hududiy klasterlarni samarali joriy etgan davlatlardan biri. Xususan, davlat va xususiy sektor hamkorligi asosida tuzilgan texnoparklar innovatsiyalarni joriy etishga xizmat qiladi. Xitoyda esa yirik eksport salohiyatiga ega bo'lgan davlat sifatida, to'qimachilik klasterlarining hududiy ixtisoslashuviga alohida ahamiyat qaratadi. Ular o'z klasterlarini xalqaro bozor talablariga moslab rivojlantirishga qaratilgan boshqaruv modelini ishlab

chiqqan. O'zbekiston uchun mazkur davlatlarning tajribasini o'rganib, mahalliy sharoitga moslashtirish muhim ahamiyatga ega deb hisoblaymiz [10].

XULOSA VA TAKLIFLAR

To'qimachilik sanoati klasterlarini boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish hozirgi kunda milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Klaster tizimi samaradorligini oshirish uchun quyidagi asosiy yo'nalishlar muhim ahamiyat kasb etadi:

1. Qo'shilgan qiymat zanjirini rivojlantirish: xom ashyodan tayyor mahsulotgacha bo'lgan ishlab chiqarish jarayonini to'liq qamrab olish klasterlarning iqtisodiy samaradorligini oshirishning asosiy omillaridan biridir.

2. Innovatsiyalarni joriy etish: texnologik modernizatsiya va raqamli boshqaruv tizimlari klasterlar samaradorligini yanada oshirishga yordam beradi.

3. Davlat-xususiy sheriklikni kuchaytirish: davlat tomonidan qulay shart-sharoitlar yaratish va xususiy sektorni jalb qilish to'qimachilik sanoatida samarali hamkorlikni ta'minlaydi.

4. Eksport salohiyatini kengaytirish: jahon bozoriga kirish uchun mahsulot sifati va raqobatbardoshligini oshirish muhim.

5. Infratuzilmani takomillashtirish: logistika, moliyalashtirish va kadrlar tayyorlash kabi sohalarni rivojlantirish klaster tizimining samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Muqobil yondashuvlar va tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish orqali to'qimachilik sanoati klasterlari samaradorligini oshirish mumkin. Quyidagi takliflarni amalga oshirish tavsiya etiladi:

1. Klaster ishtirokchilari o'rtasida hamkorlikni kuchaytirish uchun raqamli axborot platformalarini joriy etish.

2. Davlat tomonidan innovatsiyalarni moliyalashtirish uchun alohida fond yaratish.

3. Marketing va eksport strategiyasini takomillashtirish, "Made in Uzbekistan" brendini rivojlantirish.

4. Xalqaro tajribani o'zlashtirish orqali mahsulot sifatini oshirish.

Taklif etilayotgan chora-tadbirlar klaster tizimining umumiy samaradorligini oshirishga, shuningdek, O'zbekistonning jahon to'qimachilik bozoridagi o'rnini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Ushbu tadqiqot natijalari to'qimachilik sanoati klasterlarini rivojlantirish bo'yicha ilmiy-nazariy asoslarni belgilab berib, sohani takomillashtirish uchun aniq amaliy chora-tadbirlarni ishlab chiqish imkonini beradi. Klaster tizimidagi innovatsiyalarning joriy qilinishi milliy iqtisodiyotda yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish va eksport ko'lamini oshirishga zamin yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Enright M.J. Why Clusters are the Way to Win the Game? // Word Link. 1992. July/August. No 5. P. 24-25.
2. Мухсинова П.А. Развитие легкой промышленности региона на основе кластерного подхода (на материалах Согдийской области Республики Таджикистан). Автореферат дисс. кандидата экон. наук. – Душанбе, 2020. – С. 27.
3. Boltabaev M.R. O'zbekiston Respublikasi to'qimachilik sanoati eksport imkoniyatlarini rivojlantirishda marketing strategiyasi: doktorlik dissertatsiyasi. – T.: TDIU, 2005. – 242 b.;
4. Toshpulatov I.A. To'qimachilik korxonalarining raqobatbardoshligini boshqarish tizimini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. –T.: TDIU, 2019. – 137 b.
5. Abdukhalimovna, A.Z., & Nabievich, II (2021). Organization of Long-Term Asset Accounting on the Basis of International Standards. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF INNOVATIONS ON TOURISM MANAGEMENT AND FINANCE, 2(11), 86-92.
6. Qudbiyev, N. T., Axmadaliyeva, Z. A., & No, D. M. O. G. L. (2022). SOLIQ YUKINING BIZNES UCHUN AHAMIYATI. Scientific progress, 3(3), 699-708.
7. Axmadaliyeva, Z. A. (2023). MHXS ASOSIDA INVESTITSION MULKLARNI HISOBGA OLISHNING O'ZIGA XOSLIGI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(5), 801-811.
8. Z.A. Axmadaliyeva (2024) Biologik aktivlar buxgalteriya hisobni milliy va xalqaro standartlarga muvofiq takomillashtirish masalalari YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT 1 (4), 27-31 2024.
9. A.Z. Abduxalimovna XALQARO VA MILLIY STANDARTLARGA KO'RA BIOLOGIK AKTIVLAR HISOBINING MUAMMOLI MASALALARI Raqamli iqtisodiyot ilmiy-elektron jurnal 7, 498 b.
10. A.Z. Abduxalimovna MILLIY HISOB TIZIMIDA BIOLOGIK AKTIVLARNI HISOBGA OLISH BO'YICHA TAKLIF VA TAVSIYALAR. Raqamli iqtisodiyot ilmiy-elektron jurnal 8, 455-464 b.